



YOSHLAR TARBIVASINI YUKSALTIRISHDA MA'NAVIY TADBIRLARNING O'RNI

Muallif: Kushinova Ra'no Satiboldiyevna ¹

Affilyatsiya: Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14379071>

O'zbekiston Respublikasi yangi hayot uchun-yangi O'zbekiston uchun shiori ostida rivoj topib borar ekan, yurtimizda ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish borasida milliy qadriyatlarni tiklash, shular asosida yaratilgan milliy bayramlar, ommaviy marosimlarni qayta bunyod etish ishlariga alohida jiddiy tus berilmoqda. "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat - bu insonlarning ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy qarashlariga oid tushunchalarni qamrab oladigan jarayonlardan hisoblanib, aniq reja asosida o'tkaziladigan tadbirlar asnosida amalga oshiriladigan ishlar majmuasidir". Ma'lumki, "ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining ko'pincha birgalikda qo'llanishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ta'lim va tarbiya uyg'unligini nazarda tutadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida buning ahamiyati, dolzarbligi yuz barobarga oshadi. Aytib o'tganimizdek, ma'naviyat bevosita ma'rifat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bilish orqali juda ko'p muammolarni bartaraf qilish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda asosiy maqsad yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, ma'naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik hissiyotlarini rivojlantirish, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rnini egallashi, kelajakda jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanishi, ilimli, bilimli, zukko bo'lishi kabi ulug' maqsadlar qo'yilgan. Hozirgi kunda bunday ishlar ta'lim muassasalari bilan bir qatorda mahallalarda ham tashkil etilishi katta samara bermoqda hamda bu boradagi samaradorlikning rivoj topishida xotin – qizlarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san'at muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilayotgan bir paytda, Namangan davlat universiteti xotin- qizlar pahnamoligida o'tkazilib kelinayotgan ma'naviy- ma'rifiy ishlar tahsinga loyiq deya ayta olaman. Shunday ekan, universitet olimlari ayollari va xotin- qizlari oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalashda, ta'lim muassasalarida esa yoshlarning qalbida adolat, burch, vatanparvarlikni hissini shakllantirish, ona Vatanni sevishlari o'ta muhimligini uqtiradilar...

Ma'naviy- axloqiy shakllanishning eng maqbul yo'llaridan - musiqiy madaniyatimizning ma'naviy hayotdagi o'rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqi merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folpklor ijrochiligi, kuy tuzilishi,

mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijro-chi-li-gi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqa-sini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy mada-niya-tida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.[2] Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy extiyojiga barcha davrlarda beminnat xizmat qilgan. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi, dars jarayonida ham sinfdan va maktabdan tashqari vaqtda ham o'zbek milliy an'analarimizga, xususan, mumtoz kuy qo'shiqlarimizga e'tiborimizni haratishimiz lozim. Bunga zamonaviy musiqa ham zarur. Ikkala janrning bir-biriga bog'liqligi ham shunda. Inson hayotda yashar ekan, zamon bilan xamnafas yashaydi. Insonning go'zallik tuyg'usini shakllantirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Shaxsni kamol toptirishda musiqa madaniyatining o'rni va ahamiyatini ochib berish, birinchidan, inson va uning mohiyati masalasini, ikkinchidan, ma'rifatlik ko'lamini, uchinchidan, ma'naviy kamolotda musiqa ega bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash demakdir.

Bundan tashqari musiqa insonning umuman hayotga bo'lgan estetik munosabatlarini kuchaytiradi va noziklashtiradi, ayniqsa yoshlarni iste'dodini ro'yobga chiqarish, ahloqan poklanish, hayotga moslashish, biror kasb-hunar egasi sifatida ijtimoiy faollashishiga yordam beradi. Musiqa bilan chinakam oshno bo'lgan shaxsning xatto tashqi qiyofasi, xatti-harakati va muomala madaniyatida ham o'zgarish ro'y beradi.

Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrasida jami 25 nafar professor-o'qituvchilar, shulardan 8 nafari xotin - qizlar talabalarga bilim berib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni bajarish yuzasidan hamda universitetda san'at va madaniyatni yanada yuksaltirish, madaniy - ma'rifiy ishlar saviyasini yanada rivojlantirish maqsadida 2019 yilda yangi tashkil etilgan "Vokal va an'anaviy xonandalik san'ati", "Cholg'u ijrochiligi" yo'nalishlariga qabul qilingan iste'dodli talabalardan iborat professional darajadagi ansambllar tashkil etildi. "Iftixor" nomli folklor- etnografik ansambli tashkil etilishi ham madaniyat muassasalari bilan hamkorlikning yorqin misolidir.

Musiqa o'qituvchisining muayyan mahoratiga erishuvi uch muxim mantiqiy davrni o'z ichiga oladi. Birinchidan, o'qituvchining sa'yi haraqatlari o'z kasbining qadr qimmatiga yo'naltirilgan bo'lishi, ya'ni o'z idealidagi musiqa o'qituvchisi qanday bo'lishi kerakligini aniq tasavvur qila olishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Fakultetda nogironligi bor talabalar bilan o'quv-ma'naviy va ma'rifiy hamda ularning bo'sh vaqtlarini ta'minlash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Ularga fakultet qoshida "Cholg'u ijrochiligi", "Raqs" va "Musiqa savodxonligi" to'garaklari tashkil etilgan. Fakultet raxbariyati va tyutorlari bilan birgalikda "Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil, tarbiyasi og'ir talabalar bilan ishlash" bo'yicha bugungi kunda har bir guruh raxbari o'z faoliyatini maqsadli olib borishni yo'lga qo'ymoqdalar. Chunki, ta'lim bilan tarbiya chambarchas olib boriladi. Ma'lumot o'rnida, fakultetda Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil, tarbiyasi og'ir talabalar mavjud emas. Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat

omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi angelaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ba'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi. Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan ko'z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba'zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo'l ko'taradigan va o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'layotgan kishilar uchraydi.

Prezidentimiz Vatanga bo'lgan munosabatni chin dildan his etib, boshqa sohalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish yo'lida jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ularning eng asosiy maqsadi bugungi pedagogni yosh avlodga bilim, ko'nikmalar berish bilan birga yoshlarni oqilona milliylik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. 2021 yil 19 yanvar kuni bo'lib o'tgan ushbu ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonning mafkurasi deganda, avvalo, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniyqadriyatlar tarbiyasi ekanligini takidlab o'tdi. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir", - deydi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Bu borada "Yangi O'zbekiston- yangicha dunyoqarash" shiorini oldinga surib, talaba- yoshlarga Vatanni sevish, vatanparvarlik g'oyalarini singdirish orqali ham jinoyatchilikni oldini olish lozim.

Talabalarni doimo universitet tartiblariga, intizomiga rioya etishlari, darslarga o'z vaqtida formada kelishlari, San'atshunoslik fakulteti talabasiga xos bo'lgan kamtarlik va sipolik, qat'iyatlilik va faollikni o'zlarida mujassamlashtirishlari lozimligi qayd etib boriladi. Talabalar turar joyida fakultet Xotin qizlar kengashi tomonidan talaba qizlarning yashash sharoitlari o'rganiladi. Talabalar turar joyidagi ozodalik, xonalarning tozaligini tekshirib, talaba qizlarga maslaxatlar beradilar.



Xulosa o'rnida Muhtaram yurtboshimiz bugungi kunda madaniyat va san'at sohasiga yuksak darajada e'tibor bermoqdalar, ayniqsa yoshlarimiz o'rtasida milliy musiqa san'atini yanada rivojlantirish, ularda mumtoz qo'shiqchilik san'atiga mehr-muhabbatni shakllantirish lozimligini uqtirib, quyidagi fikrlarni qayd etdilar: "...agar biz asl haqiqiy san'atni bilmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak..." deya ta'kidlashlarida ham ta'lim maskanlarida musiqiy bilim berayotgan pedagoglarimizning mas'uliyatlari ham ortib borishini kuzatamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma`ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar. 11-son.

Panjiyev Q. "O'zbek musiqasining qatlamlari" T. 2016 y. Asqarova O'.M. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar (Bakalavriatning barcha pedagogik yo'nalishlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma). NamDU. – T.: Istiqlol, 200.

T. Ortiqov, Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari, T., 2012 y.

